

## NODAVLAT O'RTA TA'LIM MAKTABLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

**Sobirova Gulzoda Abdulxayevna**

*Turon instituti magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada nodavlat o'rta ta'lim muassasalarini rivojlantirish jarayonida tashkiliy hamda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning nazariy asoslari va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim tizimida raqobatbardosh muhitni yaratish, xususiy sektor faoliyatini kengaytirish hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan mexanizmlar yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *nodavlat ta'lim, o'rta maktab, iqtisodiy mexanizm, tashkiliy boshqaruv, ta'lim sifati, investitsiya.*

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida nodavlat sektorining ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Mamlakatda ta'lim sohasini erkinlashtirish, xususiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda raqobatbardosh ta'lim muhitini yaratish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Nodavlat o'rta ta'lim maktablari — bu innovatsion yondashuvlarga, zamonaviy boshqaruv uslublariga va moliyaviy mustaqillikka tayangan ta'lim muassasalari hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun samarali tashkiliy hamda iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish zarurdir. Globalizatsiya va raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim tizimida raqobatbardoshlik, moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvlar asosiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, davlat bilan bir qatorda nodavlat sektorining faol ishtiroki ta'lim tizimini yanada diversifikatsiya qilish hamda uning rivojlanishiga yangi turtki berishga xizmat qilmoqda. Nodavlat maktablar o'quvchilarga muqobil o'quv dasturlarini taklif etish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'qitish va zamonaviy infratuzilmani joriy etish orqali ta'lim sifati hamda mazmunini boyitmoqda.

Nodavlat maktablarni boshqarishning tashkiliy mexanizmi — bu ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, malakali pedagogik kadrlarni tanlash, o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda monitoring tizimini yo'lga qo'yish jarayonlarini qamrab oladi.

Bunday mexanizmning samarali ishlashi quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga tayangan holda amalga oshiriladi:

1. Strategik boshqaruv tizimi — maktabning missiyasi, maqsad va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;
2. Kadrlar siyosati — malakali o'qituvchilarni tanlash, ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda samarali rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

3. Innovatsion boshqaruv — raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (AI) asosida boshqaruv modellarini joriy etish orqali ta'lim jarayonini optimallashtirish;

4. Hamkorlik va kommunikatsiya tizimi — ota-onalar, jamoatchilik hamda turli hamkor tashkilotlar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yish.

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimida har qanday ta'lim muassasasining, jumladan, nodavlat o'rta ta'lim maktablarining barqaror rivojlanishi, asosan, strategik boshqaruv tizimining samarali yo'lga qo'yilishiga bog'liq. Strategik boshqaruv faqat kundalik faoliyatni tartibga solish bilangina cheklanmay, balki uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, ularni amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish hamda mavjud resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Mazkur tizim nodavlat o'rta ta'lim maktablarining raqobatbardoshligini kuchaytirish, resurslarni samarali boshqarish va ta'lim sifatini izchil ravishda oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Strategik boshqaruvni samarali joriy etish natijasida ta'lim muassasasi nafaqat ichki barqarorlikka erishadi, balki xalqaro miqyosda ham o'z nufuzini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, bugungi kunda ta'lim tizimi raqamlashtirish jarayonlari, globallashuv va mehnat bozorida yuzaga kelayotgan yangi talablar ta'sirida jadal sur'atlarda o'zgarib bormoqda. Ana shunday sharoitda innovatsion boshqaruv konsepsiyasi ta'lim tizimining, xususan, nodavlat ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Innovatsion boshqaruv — bu ta'lim muassasasi faoliyatiga zamonaviy yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, ijodkorlik va boshqaruv madaniyatini joriy etish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan boshqaruv tizimidir. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati esa faqat o'qituvchi va o'quvchining faoliyatiga emas, balki ularning ijtimoiy muhit bilan o'zaro hamkorligiga ham bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, nodavlat ta'lim tizimida bunday hamkorlik aloqalari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu muassasalar o'z faoliyatini mustaqil ravishda boshqaradi, ta'lim xizmatlari sifati bo'yicha raqobatga kirishadi va jamoatchilik ishonchiga tayanib rivojlanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PQ-4319-son qarori. – Toshkent, 2019.
3. Xodjayev A., Karimov M. Ta'lim menejmenti asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
4. UNESCO. Private Education and Public Policy. – Paris, 2021.
5. World Bank. Education Sector Financing Review: Central Asia. – Washington, 2022.